

**MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA SIFAT – SAMARADORLIKNI  
OSHIRISHDA KO`RGAZMALI TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH  
METODIKASI**

**Ataboyeva Muxlisa Azimjon qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

“Musiqa ta`lim va san`at” yo`nalishi 1 – kurs magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqola musiqa madaniyati darslarida sifat – samaradorlikni oshirishda ko`rgazmali texnik vositalardan foydalanish metodikasini shakllantirish, o`quvchilarga ko`rgazmali qurollardan, o`qitishning zamonaviy texnik vositalar orqali musiqa savodxonligida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur'at), intervallar, alterasiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifodalovchi vositalari, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minor ladi haqida tushuncha berish orqali ko'zlangan maqsadga erishishimiz to`g`risida.

**Kalit so`zlar:** Ko`rgazma, ko`rgazmali texnik vositalar, templar, intervallar, alterasiya belgilari, dinamik belgilar, multimedya, interfaol.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev mamlakatimizda yosh avlod uchun musiqa madanyatiga katta e`tibor qaratmoqda. 2019 – yil Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev Sergeli tumandagi 329 – o`rta ta`lim maktabining faoliyati bilan tanishish jarayonida “Har bir o`g`il – qiz hech bo`lmasa bitta cholg`u asbobini chalishni bilishini istardim” – deya takidlardilar. Bu kunga kelib, Prezident qarori bilan “Ummumiy o`rta ta`lim muassasalarida o`quvchilarga milliy musiqa cholg`ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o`rgatiladi hamda bu haqida ularning to`g`risidagi hujjatlari (shahodatnama)ga tegishli qayt kiritiladi. Musiqa fani o`qituvchilarining milliy cholg`ulardan kamida bittasini, 2023/2024 – o`quv yilidan boshlab esa kamida uchtasini chala olish mahoratiga ega bo`lish majburiy hisoblanadi. Ularga asosiy ish joyida ish haqini saqlab qolgan holda, musiqa fanidan dars o`tish va to`garak

mashg`ulotlarini olib borishga ruxsat beriladi. Musiqa darslarida “Hayotimga hamrohdir cholg`u” shiori ostida “cholg`u ijrochiligi” mashg`ulotlari yo`lga qo`yiladi” .

Bu vazifalar maktab, oila, butun jamoatchilikka katta mas`uliyat yuklaydi. Mamlakatimizda musiqa madaniyati shakillanishi, sifat samaradorligini oshishi, ta`lim-tarbiya sohasining barcha bo`g`inlari – maktabgacha ta`lim, mактаб, о`rta maxsus va oliy ta`lim tizimini takomillashtirish, yangi muassasalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta`mirlash bo`yicha olib borilayotgan ishlar yoshlar kamolotida o`z samarasini beradi. O`quvchilar musiqa madaniyati fanidan bilim ko`nikmalarini oshirish uchun darslarni zamonaviy shakllarda o`tish kerak.

Maktabda musiqa madaniyati fanini o'qitishni doimiy ravishda turli xil ko`rgazmali – texnik vositalardan foydalanish va yangi ko`rgazmali eksperiment bilan birga olib borish kerak. Biroq, zamonaviy maktabda fan bo'yicha eksperimental mashg'ulotlar ko'pincha mashg'ulot vaqtining yetishmasligi yoki texnik vositalar yo`qligi sababli qiyinlashadi. Hamma maktablar ham musiqa cholg`usi bilan ta`minlanmagan, yoki cholg`u asboblari bo`lsa ham sinfma - sinf yurish jarayonida o`zi bilan olib chiqolmasligi, darsga tayyorgarlik ko`rish va o'tkazish, ish natijalarini tahlil qilish uchun ko'proq vaqt talab etadi.

Tasavvurli fikrlash qobiliyatiga ega bolalar mavhum umumlashtirishni o'zlashtirishda qiynaladilar, shu cholg`uni ozini ko`rmasa yoki rasmsiz ular bu nimaligini tushunishga, eshitish jarayonida esa qaysi cholg`u ekanligini ajratishi qiyin bo`ladi. Bizning maqsad nafaqat turli xil rasmlar yoki cholg`uning ozi, shu cholg`u asboblarni o`quvchilar bilan yashash jarayonida ularda tassavur hosil qilish. Kuy, qo`shiqlarni nafaqat cholg`u asbobida turli xil buyumlar yordamida ham tovush chiqara olishini musiqali o`yinlar ostida o`rgatisiiz mumkin. Multimediya animatsion yordamida kompozitorlar haqida bolalarga yetkazib berish mumkin va bu ancha qiziqarli bo`ladi. Interfaol modellar esa jarayonni mustaqil ravishda "qurish", xatolarini tuzatish va mustaqil ishlashga imkon beradi.Ta'lism jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklaridan biri bu faoliyatning yangiligi, kompyuter bilan ishlashga qiziqish tufayli o'quv sifatini oshirishdir.

Musiqa madanyati darslarida o`quvchilarga ko`rgazmali qurollardan, o`qitishning zamonaviy texnik vositalar orqali musiqa savodxonligida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur'at), intervallar, alterasiya belgilar, dinamik belgilar, musiqaning ifodalovchi vositalari, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minor ladi haqida tushuncha berish orqali ko'zlangan maqsadga erishamiz.

Misol uchun 1- sinfda o'quvchilar nota yozushi, notalarning joylashuvi, notalar nomi, uzunligi bilan qisman tanishib borishadi. Bu jarayonda biz o`qituvchilarning vazifasi bolalar tilida, turli xil ko`rgazmali texnik vositalar orqali yetkazib berish.

1-sinfning 1-chorakda bevosa nota yo`li degan alohida mavzu mavjud. Avvalambor, o'quvchilarga notalar yoziladigan chizig'ning nega beshtaligini, nota yo'lining ahamiyati va ularda notalar qanday joylashganligi haqida boshlang`ich tushunchalar berish lozim.

Bu jarayonda bolalar ko`ziga ko`rinadigan joyga nota yo`lini osib qo`yish kerak va o`quvchilar bilan birga nota yo`lini sanashimiz kerak. Sanab bo`linganidan keyin. Bolalarga savol berish lozim.

O`qituvchi: Nechta chiziq ekan ?

O`quvchilar: 5 ta

Shu savoldan keyin bu nota yo`l ekanligini tushuntiramiz va yana savol beramiz.

O`qituvchi: Nota yo`lida 7 ta yoki 4 ta chiziq qilishimiz mumkinmi ?

Boshida o`quvchilar bu savolga javob berishga qiynalishadi. Ba`zilar ha, ba`zilar yo`q degan javob berishadi, chunki hali ular to`liq tushunib yetmagan bo`lishadi. Bu jarayonda shu savol berish orqali qo`shimcha qilinadi.

O`qituvchi: Nota yo`lida faqat 5 ta chiziq bo`ladi undan kam emas, undan ko`p ham emas. Bu tushunchadan keyin yana shu savol faqat boshqacharoq beriladi.

O`qituvchi: Nota yo`lida 6 ta yoki 3 ta chiziq qilishimiz mumkinmi ?

O`quvchilar: Yo`q – deya javob berishadi

O`qituvchi: Nega mumkinmas ? - degan savolni qo`yganda o`quvchilar birgalikda, chunki nota yo`lida 5ta chiziq bo`ladi degan javobni beradi.

Yana skripka kaliti yoki sol kaliti haqida tushuncha beradigan bo`lsak, eng chiroyligi metodlardan biri bilan tanishamiz.

O`qituvchi: «Bolalar, maktabdan uyga kelganingizda eshikdan to`g`ri kirib borasizmi ?, yoki avval kalit bilan ochib keyin kirasizmi?»

O`quvchi: Kalit bilan ochamiz.

O`qituvchi: Demak, kalitsiz uyga kirib bo'lmas ekan-a?

O`quvchi: Ha.

O`qituvchi: Musiqani yozish uchun ham musiqiy yo`lini avval kalit bilan ochamiz, ya'ni kalit belgisini qo'yishimiz shart, bo`lmasa biz musiqa olamiga kira olmaymiz – deb tushuntiramiz.

Ayrim hollarda o`qituvchi dars jarayonida o`quvchilarga tushunarliroq va qiziqarliroq bo'lishi uchun nota chiziqlari yordamisiz ham qo`l yordamida notalar joylashuvini topish va ko'rsatishlari mumkin. Buning uchun o`qituvchi qo`lini ko`ndalang holda tutib, har bir barmog'ini nota chizig`i deb faraz qiladi. O`quvchilarga ham o`ng qo`llarini xuddi shunday tutib o`qituvchi bilan birgalikda chap qo`l ko`rsatkich barmog ida notalarni ko`rsatadilar va o`qituvchi aytgan notalarni o`zlarini topib ko`rsatadilar.

2 - sinfning 3 - chorakda o`lchov mavzusida o`quvchilar bilan notalarni cho`zimini sanashni o`rganamiz. Dastlab o`tilgan butun, yarim, chorak va nimchorak notalarni ko`rgazmali texnik vositalar orqali takrorlanadi va har birining cho`zimini tushuntiriladi. Keyin esa nota cho`zimlarini o`yin orqali darslar o`tkazishimiz mumkin. Istalgan butun, yarim, chorak yo nimchorak notalarni ko`rsatamiz. O`quvchilar esa ularning cho`zimini qarsak yordamida chalib yoki turli xil buyumlar (qo`ng`iroqcha, qoshiq, plasmassa idishlar ) orqali ko`rsatishlari mumkin.

Bu orqali bolalarda oson tushuncha hosil bo`ladi, tezda esda qoladi va qiziqishadi. Faqatgina musiqa savodxonlik darslarida emas, musiqa tinglashda ham, asar tahlilida ham, ohang ko`rgazma sifatida chalib ko`rsatiladi va o`z samarsini beradi. Musiqa cholg`ularida ijro etishda turli ko`rgazmali qurollar va emotsiyon yondashuv usullaridan foydalanish o`quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini faollashtiradi va musiqaga bo`lgan qiziqishini orttiradi. Bundan tashqari musiqa madaniyati darslarida sxema, jadvallar, boshqotirmalar, texnik vositalar, ko`rgazmali

kartochkalar, grafik yozuvlar, rasmlar, nota yozuvlari orqali o`quvchilarda ko`nikma hosil qilib boriladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Dildora Soipova “Musiqa o`qitish nazaryasi va metodikasi” Toshkent Toshkent 2009 - yil
2. Nadim Norxo`jayev, Gulnora Ganiyeva “1 – sinf musiqa darslik” Toshkent 2021 - yil
3. Nadim Norxo`jayev, Shoxista Norxo`jayeva, Dilnoza Toshmuhammedova “2 – sinf musiqa darslik” Toshkent 2021 – yil
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/02/03/musiqa>

